HARBIY TA’LIM MUASSASALARDA TALABALARINING KASBIY MULOQOTI JARAYONINI TADBIQ QILISHNING PSIXOLOGIK METODLARI.

Abdullayev Amrullo Nassulloyevich
Buxoro psixologiya va xorijiy
tillar instituti dotsenti.

Annotatsiya: Hozirgi davrda O’zbekiston Respublikasida ijtimoiy – iqtisodiy sohalarda kechayotgan tub islohotlar jamiyatning barcha tarmoqlarini qamrab olmoqda. Ayniqsa, jamiyat taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan idora va tarmoqlardagi o‘zgarishlar mamlakat rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. O’zbekiston Respublikasi Мудофаа вазирлиги тасаруфидаги олий таълим муассасалари ham aynan shunday tub o‘zgarishlarni boshidan kechirayapti.

Kalit so‘zlar: kommunikativ qobiliyatlarni, psixotexnika, Senzitiv trening, Perseptiv-diagnostik trening, Mexelsonning kommunikativ,Og‘zaki portret, Psixometrik mashg‘ulotlar.

Bugungi kunda xalqaro aloqalarning jadallashuvi va kengayishi O’zbekiston Respublikasi Мудофаа вазирлиги тасаруфидаги олий таълим муассасалари xalqaro faoliyatining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Мудофаа вазирлиги jarayonlarini amalga oshirishda xorijiy texnologiyalar, zamonaviy kompyuter texnologiyasi, elektron va zamonaviy uskunalaridan foydalanish o‘z ijobiy samarasini bermoqda, ammo shu bilan birga, tizimda faoliyat olib borayotgan xodimlarning psixologik tayyorgarligi, ularning kasbiy malakalarni egallashlari tizim faoliyatini samarali tashkil etishda muhim o‘rin egallovchi omil bo‘lib qoladi.

Kasbiy faoliyatni psixologik ta’minotida asosiy o‘rinlardan birini kasbiy tayyorgarlik bosqichi egallaydi.

O’qitishni jadallashtirishning psixologik-pedagogik tomonlari, insonning ichki resurslarini, uning ijodiy imkoniyatlarini faollashtirishning guruhiy vositalari, mutaxassislarning shaxsiy sifatlarini shakllantirishga mo‘ljallangan treninglarni

tashkil etish va ularni o‘tkazish hozirgi kunda dolzarb masala sifatida yuzaga chiqmoqda.

Zamonaviy sharoitda treningni turli murakkab faoliyatlarni o‘rganish va egallash qobiliyatlarini rivojlantirishga, yangi funksional tuzilmalarni yaratishga (yoki mavjud bo‘lganlarini shakllantirish) mo‘ljallangan metodlar guruhi, ustanovkalar malaka hamda qobiliyatlar, shaxs xususiyatlari, sifatlari kognitiv strukturasini o‘zgartirish, shu bilan birga insonda zarur kasbiy sifatlar, xususiyatlar shaxsiy xarakteristikalarni rivojlantirish maqsadida psixologik ta’sir o‘tkazishning ko‘pqirrali metodi sifatida qaraladi.

Trening natijasida guruh qatnashchisi faoliyat muhitini (ijtimoiy, jismoniy) va unda o‘zini anglaydi, o‘z oldiga qo‘yilgan kasbiy hamda shaxsiy maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan yanada faolroq ta’sir vositalarini egallaydi. Kasbiy kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirishda noeffektiv xatti – harakat modellarini mazkur vaziyat uchun optimal xatti – harakat modellari bilan almashtirish jarayoni kechadi .

L.Petrovskayaning fikricha, ijtimoiy psixologik trening mavjud bo‘lgan shaxsiy o‘zgarishlar uchun turtki rolini bajaruvchi vaziyat yaratadi... trening davomida o‘zi va boshqalar haqida olingan yangi chuqur emotsional ma’lumotlar «Men - konsepsiya», «O’zga» - konsepsiyasi, «Men - ideal» konsepsiyalarini qayta idrok etishga, shu yo‘l bilan qo‘yilgan vazifalarning shaxsiy ma’no kasb etishiga sharoit yaratadi.

Treningda psixologik ta’sir maqsadli ravishda to‘yingan axborot muhitini yaratish, ma’lum tarzda tashkillashtirilgan faoliyatga jalb etish shuningdek, ergashtirish, ishontirish, taqlid qilish kabi psixik mexanizmlar asosida so‘z orqali va so‘zsiz vositalar yordamida axborotlarni uzatish orqali amalga oshiriladi.

Psixologik trening maxsus tashkil etilgan intensiv ta’sir tizimi bo‘lib, kishilar kundalik hayoti va boshqaruv faoliyatining dolzarb muammolarini hal etishga yordam beruvchi vositadir. Hozirgi kunda treningni amaliy psixologiyaning maxsus sohasi sifatida baholashda turli qarama-qarshi yondashuvlar va noaniqliklar mavjud. Shu davrgacha bu muammoga bag‘ishlangan barcha ishlar

trening tushunchasiga aniqlik kiritish bilan boshlanadi. Keng ma’noda «trening» atamasi guruhiy psixologik ishlarning turli shakllarini o‘zida mujassamlashtiradi. Ammo, shunga teng ravishda guruhiy psixoterapiya, psixokorreksion guruhlar, tajriba guruhlari, amaliy eksprimental laboratoriyalarning faol o‘qitish guruhlari kabi tushunchalar ham qo‘llaniladi.

I.V. Vachkov o‘zining «Guruhiy trening texnologiyasi asoslari» (1999) kitobida qayd etganidek, bir xil turdagi guruhlar turli mualliflar tomonidan turlicha nomlanadi.

Bizningcha, Yu.Ye. Yemelyanovning treningga bergan ta’rifi bizning fikrimizni aniqroq ifodalaydi:

«trening» termini … o‘qitish metodikalarini ifodalashda emas, balki o‘qitish uchun zarur qobiliyatlarni yoki turli murakkab faoliyat turlarini, shu jumladan muomalani o‘zlashtirish metodi sifatida qo‘llanishi lozim.

Ushbu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, asosiy diqqat treningni tashkil etuvchi «psixotexnik» usullarga qaratilmoqda. "Psixotexnika" termini birinchi marta U. Shtern tomonidan kiritilgan bo‘lib, psixikaga ta’sir etish va uni boshqarish amaliyotining barcha turlarini anglatadi.

N.V. Szen va Yu.V. Paxomov bu atamaning quyidagi zamonaviy ta’rifini berishadi: «Psixotexnika – bu psixik hodisalarga va ularni boshqaruvga yo‘naltirilgan san’atdir». «Psixotexnikani ko‘pincha amaliy psixologiya deb atashadi va bu bilan uning fan va amaliy yo‘nalish bilan bevosita yaqinligiga urg‘u beriladi. Psixologiyada kashf etilgan psixik jarayonlar, motivatsion va shaxs strukturalari, guruhiy dinamika va ongosti fenomenlari rivojlanishi va shakllanishi faoliyatning turli sahalarida samarali qo‘llanishi mumkin».

Ushbu ma’noda psixologik ta’sir psixotexnik vositalar orqali amalga oshiriladigan psixotexnik harakat tizimi sifatida yuzaga chiqadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, an’anaviy psixologik trening o‘zini anglash, o‘z – o‘zini tushunish, refleksiya, o‘z – o‘ziga va o‘zgalarga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, qatnashchilarning ijtimoiy adaptatsiyasini oshirish va o‘zga kishilarning xatti-harakatlarini psixologik interpretatsiya qila olish tajribasini

chuqurlashtirish uchun o‘zini boshqarish malakasini o‘zlashtirish, emotsional moslashuvchanlikni rivojlantirishda qo‘llaniladi.

Treningning jamoani rivojlantirishdagi asosiy shakllari ish o‘yinlari, guruhiy bahs munozaralar, rolli o‘yinlar, «aqliy hujum»ning turli modifikatsiyalari, «g‘oyalar jangi» va amaliy vaziyatlar tahlili metodlari (keys-stadiz) qo‘llaniladi.

Jamoaning umumiy rivojlanishiga erishish, xodimlarning shaxsiy o‘sishiga va ziddiyatlarni kamaytirish uchun ko‘proq psixologik treningning an’anaviy shakllaridan foydalaniladi.

Psixodramaning ommaviy va sodda ko‘rinishlaridan biri rolli treninglardir. Qatnashchilar tugal ssenariylarni emas, balki o‘zlarini turli rollarda sinab ko‘rib, kichik sahnalarni ijro etishadi. Bu metod ijtimoiylashuvni chuqurlashtirish va takomillashtirish, qatnashchilarning baho va axloqiy – etik ustanovkalari hamda u bilan bog‘liq bo‘lgan ichki psixologik his-tuyg‘ularning korreksiyasiga mo‘ljallangan.

Rollar ijrosi, ustanovkalar, kechinmalar, o‘z his-tuyg‘ulari va guruhdagi boshqa qatnashchilarning his-tuyg‘ularini kuzatish zarur darajadagi emotsional munosabatlarning chuqurlashuviga baho va pozitsiyalarni o‘zgartirishga imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, o‘zgarishlarga ataylab yoki anglanmagan tarzda qarshilik ko‘rsatilganda bu metodni qo‘llash mumkinligi (bu holda o‘z xulq-atvorini ongli darajada korreksiyalash mushkullashadi) uning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Rolli treninglarning asosiy vazifasi kommunikativ jarayonlarni rivojlantirish va muloqot malakalari korreksiyasi, «siqiqlik» va «kompleks»larni yechishdan iboratdir. Ushbu umumiy vazifalarni bir necha alohida vazifalarga ajratish mumkin:

- muloqotning noverbal shakllarini faollashtirish;
- empatiyani rivojlantirish, muloqotdagi sherikka diqqatni to‘liq jamlay olish qobiliyati;
- nogahoniy vujudga keluvchi xatti-harakatlarni mashq qilish;
- o‘zgalar oldida yengil, tabiiy xatti-harakatlarni amalga oshira olish;

– hayotiy va maishiy jabhadagi xuddi shunday vaziyatlarda, faoliyatdagi va shaxsiy xarakterdagi oddiy ziddiyatli holatlarda yengil va moslashuvchan xatti-harakatlarni amalga oshira olish;

– konfliktli, jiddiy darajadagi shaxsiy ahamiyatga molik vaziyatlarda o‘zini to‘g‘ri tuta olish .

Senzitiv trening guruhlari individni umumiy rivojlantirishga qaratilgandir. Ushbu yo‘nalish doirasida individning hayotiy baho me’yorlarini, uning o‘ziga xosligi tuyg‘usini aniqlash birlamchi masala sifatida qaraladi. Trening sheriklarning shaxsiy sifatlarini, holatlarini, ular o‘rtasida shakllanadigan munosabatlarni to‘g‘ri tushunishda muhim bo‘lgan senzitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgandir.

Senzetiv treningning maqsad va vazifalari quyidagilardir:

– muloqotdagi kompetentlilikni rivojlantirish;

– qatnashchilarning faol ijtimoiy – psixologik pozitsiyalarini rivojlantirish;

– psixologik madaniyatni oshirish;

– ijtimoiy – perseptiv kompetentlikni rivojlantirish;

– guruh qatnashchilari tomonidan umumlashtirilgan diagnostik bilim va malakalarning o‘zlashtirilishi;

– psixologik himoya to‘siqlarini kamaytirish evaziga o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirish va shaxsiy darajadagi notabiiylikni yo‘qotish.

O’zgarishlarning keyingi doirasi ijtimoiy – psixologik kompetentlilikka, ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila olish, o‘zgalarni tushuna olish, muloqot shakllarini to‘g‘ri tanlash va qo‘llay olishga tegishlidir . Psixodinamik yondashuv ushbu ta’sirga o‘zining va o‘zganing xatti-harakatini noto‘g‘ri interpritatsiya qilinishiga olib keluvchi to‘siqlarni hamda ong osti himoya mexanizmlarini yengib o‘tish orqali erishsa, bixeviorizm vakillari ijtimoiy persepsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish va takomillashtirish, tashqi xatti – harakatni o‘z o‘rniga qo‘yish orqali erishadilar. Gumanistik yondashuv ochiqlikni, o‘zga kishining xatti – harakatini qabul qilish va tushunishni rag‘batlantirishni

nazarda tutadi. L.A. Petrovskaya o‘z ishlarida guruhiy mashg‘ulot jarayonida egallangan kechinmalar tajribasi turli ta’sirlar uchun muhim emotsional komponent bo‘lishini qayd etadi.

Faol o‘zaro hamkorlik usullarining biri ijtimoiy -psixologik treninglardir. Ijtimoiy - psixologik trening metodlari ikki guruhga bo‘linadi: o‘yin metodlari va sensitiv metod (shaxslararo sezgirlikni rivojlantirish metodi). O’yin metodlari boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularni ishlab chiqishga mo‘ljallanadi. Sensitiv metodning asosiy maqsadi individlarning bir-birlarini tushunish qobiliyatlarini takomillashtirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Muomala malakalarni shakllantirishga mo‘ljallangan ko‘plab guruhiy va yakka holdagi amaliy mashg‘ulot shakllari ichida bojxona xodimlari amaliy faoliyatida vujudga keladigan muammolar yechimini topishda ko‘proq qo‘l keladigan mashg‘ulotlardan biri ijtimoiy - psixologik trening(IPT) dir.

Faoliyatga yo‘naltirilgan IPTning ajralib turuvchi tomonlari quyidagilardan iborat: qatnashchilarning birlamchi kasbiy faoliyatlari psixologik tahlilini o‘tkazish, IPT qatnashchilarining kasbiy faoliyat strukturasidagi muloqot o‘rnini aniqlash, aytib o‘tilgan elementlarni IPT davomida qo‘llash.

Perseptiv-diagnostik trening maqsadi shaxslararo muloqot samaradorligini belgilovchi omil sifatida talabalar suhbatdoshning emotsional holati ekspress-diagnostikasini amalga oshirish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir. Treningda psixologik-pedagogik vositalar sifatida standartlashtirilgan grafik sxema-etalonlari kompleksidan foydalaniladi.

Ijtimoiy-psixologik trening quyidagi tamoyillarga asosan o‘tkaziladi: Faoliyatni belgilash tamoyili; Faollik tamoyili; Pozitsiyalar tengligi tamoyili; Teskari aloqani ta’minlash tamoyili; «Shu yerda va hozir» tamoyili; O’zaro ishonch asosidagi muloqot; Emotsional ochiqlik tamoyili; «Men - mulohaza» tamoyili; Shaxsiy javobgarlik tamoyili; Konfedensiallik tamoyili; Erkin tanlov tamoyili.

Amaliyotni o‘tkazish 6 ta bosqichni o‘z ichiga oladi.

Berilgan sharoitga moslashish, muammoning belgilanishi, o‘z «men»ligi pozitsiyasini aniqlash, tadqiqot bosqichi, integratsiya, refleksiya.

Trening davomida «O’z-o‘zini baholash» anketasi, A. Bodalyovning «Og‘zaki portret» metodikasidan, shuningdek, «Mexelsonning kommunikativ qobiliyatlarni baholash» metodikalaridan foydalaniladi.

Ijtimoiy-psixologik treningda quyidagi modellar qo‘llanildi:

1. Harbiy ta’lim fakulteti talabalari kasbiy faoliyatdagi sharoit o‘zgarishlari, xizmat vazifalarining bajarishlari jarayonida yuzaga keladigan kutilmagan vaziyat o‘zgarishlari psixologik modellari.

2. Noaniqlik omili ta’siridagi xatti-harakatlarni aks ettirgan psixologik modellar: topshiriqni bajarish sharoitidagi axborot tanqisligi va qarama-qarshiligi hamda axborotning yo‘qligi omillari.

3. Harbiy ta’lim fakulteti talabalari yangilik omili sharoitidagi xatti-harakatlari modeli. Bu model qabul qilingan qarorni amalga oshirishda talabalar uchun avvaldan ma’lum bo‘lmagan elementlarning mavjud bo‘lishidir. Mazkur yangi elementlar mutaxassisning bilimi va tajribasiga asoslanib, aniqlanadi.

4. Harakat maromining tezlashuvi jarayonidagi xatti-harakatlar modeli. Mazkur omil maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan vaqtning keskin qisqarishi natijasida paydo bo‘ladi.

5. Harakat maromining tezlashuvi va vaqt tanqisligi sharoitidagi xatti-harakatlar modeli. Topshiriqni muvaffaqiyatli bajarilishida nafaqat harakat maromining oshirilishi talab etiladi, balki qisqa vaqt ichida boshqaruv faoliyatining psixologik strukturasini o‘zgartirishga to‘g‘ri keladi: mazkur vaziyatda eng muhim operatsiyalarni aniqlash, ikkinchi darajali va unchalik muhim bo‘lmagan operatsiyalardan voz kechish talab etiladi. Vaqt tanqisligi sharoitida nafaqat aqliy harakatlarning tezlashuvi, balki ularning ketma – ketligi ham o‘zgaradi.

Taklif etilgan vaziyat quyidagi qayta ishlashlarni talab etadi:

- vaziyatning aniq oddiy tilda bayon etilishi (uslubiy qayta ishlash);

– mashg‘ulot rejasi bayoni, qatnashchilar uchun vazifaning qo‘yilishi va asoslanishi (uslubiy ishlanma).

Vaziyatga qo‘yilgan topshiriqlar 5-7 savoldan oshmasligi lozim.

O’tkazilgan ijtimoiy psixologik trening samaradorligi kommunikativ qobiliyatlarni baholash testlari hamda perseptiv qobiliyatlarni baholash metodikalari orqali o‘rganiladi.

«Mexelsonning kommunikativ qobiliyatlarni baholash testi» kommunikativ layoqatlilik darajasini va asosiy kommunikativ malakalar shakllanishi sifatini aniqlashga mo‘ljallangan. Ushbu test to‘g‘ri javoblar mavjud bo‘lgan vazifalar asosida tuzilgan. Testdagi to‘g‘ri javoblar ma’lum darajadagi etalonga mos tushishi kommunikativ layoqatlilikni belgilovchi omil sifatida qabul qilinadi. Xatti-harakatlarning etalon variantiga yaqinlashish darajasi layoqatli, dadil hamkorlik usuliga mos kelishi nazarda tutiladi. Noto‘g‘ri javoblar esa pastdan (yon bosuvchi) va yuqoridan (agressiv) javoblarga bo‘linadi. So‘rovnoma 27 ta kommunikativ vaziyatni o‘z ichiga olgan. Har bir vaziyatga 5 ta variantdagi javob mavjud. Har bir qatnashchi o‘zi uchun maqbul bitta javobni tanlashi zarur. Ikkita javobni tanlash yoki so‘rovnomada mavjud bo‘lmagan variantlarni qo‘shish man etiladi. Taqdim etilgan kalit asosida (tanlangan javoblar soniga nisbatan foiz hisobida) shaxs uchun yetakchi bo‘lgan xatti-harakat usuli (layoqatlilik, yon bosuvchanlik, agressivlik) aniqlanadi.

Savollar 5 tipdagi kommunikativ vaziyatlarga ajratilgan:

– Muloqotdagi sherikning ijobiy mulohazalariga bo‘lgan munosabat vaziyati (1, 2, 11, 12 - savollar);

– Muloqotdagi sherikning salbiy mulohazalariga munosabat vaziyati (3, 4, 5, 15, 23, 24 - savollar);

– Muloqotdagi sherikning iltimos bilan murojaat qilishiga munosabat bilan bog‘liq vaziyatlar (6, 10, 14, 16, 17, 25 - savollar);

– Suhbat vaziyati (13, 18, 19, 26, 27 - savollar);

– Empatiyani (insonning holati va tuyg‘ularini tushunishni) namoyon etish vaziyati (7, 8, 9, 20, 21, 22 - savollar).

Quyidagi savollarga berilgan javoblar esa o‘ziga xos qobiliyatlar blokini tashkil etadi:

1. E’tiborni (maqtovni) qabul qila olish va e’tibor bildira olish qobiliyati – 1, 2, 11, 12 – savollar;

2. Adolatli tanqidga munosabat qobiliyati – 4, 13 – savollar;

3. Noto‘g‘ri tanqidga munosabat qobiliyati – 3, 9 – savollar;

4. Suhbatdoshning qattiq botadigan, «ilmoqli» xatti-harakatlariga bo‘lgan munosabat – 5, 14, 15, 23, 24;

5. Suhbatdoshga iltimos bilan murojaat qila olish qobiliyati – 6, 16 – savollar;

6. O’zganing iltimosiga rad javobini bera olish qobiliyati – 10, 17, 15 – savollar;

7. O’zgalarga g‘amxo‘rlik, ko‘mak bera olish qobiliyati – 7, 20 – savollar;

8. Famxo‘rlikni, ko‘makni qabul qila olish qobiliyati – 8, 21 – savollar;

9. O’zgalar bilan aloqaga kirishuvchanlik qobiliyati – 18, 26 – savollar;

10. O’zganing aloqaga kirishish istagiga nisbatan munosabat – 19, 27 – savollar.

A. Bodalyovning «Og‘zaki portret» metodikasi orqali IPTdan oldin va undan keyin tadqiqot va nazorat guruhlarida notanish kishi qiyofasidan olingan taassurotlarning bayoniy xarakteristikalari, shakliy tahlil (bayon etish hajmi) va mazmun tahlili (kategoriyalardan foydalanish darajasi) ko‘rsatkichlari bo‘yicha farqlar aniqlanadi.

«Og‘zaki portret» metodikasi qo‘llanishi jarayonida 20 dona bir xil formatdagi (9x14) oq-qora tasvirdagi ayol va erkak fotosuratlari tanlab olinadi. Tanlov jarayonida fotosuratdagi kishilar chehrasidagi ifodaning neytral bo‘lishiga ahamiyat berish lozim.

Birinchi hamda ikkinchi qismda har bir tadqiq etiluvchi ikkitadan fotocurat (ayol va erkak)ni tasvirlab berishadi.

Og‘zaki portret metodikasini qo‘llash jarayonida qatnashchilar uchun bayon etish kategoriyalari tanlovida cheklovni nazarda tutmagan ko‘rsatmalar beriladi. Fotosuratlarni tashqi ko‘rinish jihatidan va imkoni boricha ichki jihatdan xarakterlab berish so‘raladi. So‘rov yakka tartibda o‘tkaziladi qatnashchilar yozma javob berishadi, javob vaqti chegaralanmaydi.

Kontent – tahlilning asosiy qo‘llanish yo‘nalishlari: matngacha mavjud bo‘lgan xususiyatlarni aniqlash va u yoki bu tarzda mazkur xususiyatlarning matnda aks etganligi (bu yerda matn o‘rganilayotgan ob’ekt (atrof muhit, matn muallifi yoki matn yo‘naltirilgan adresat)ning ma’lum tomonlarini aks ettiruvchi indikator vazifasini bajaradi; faqatgina matnda mavjud bo‘lgan xususiyatlarni aniqlash (turli shakliy xarakteristikalar – til, tuzilma, xabar janri, nutqning ritmi, toni); matndan so‘ng vujudga kelishi mumkin bo‘lgan, ya’ni adresat tomonidan uning idrok etilishi tufayli paydo bo‘ladigan xususiyatlarni o‘rganish (turli ta’sir effektlarini baholash).

Mashg‘ulotlarda turli mualliflar (masalan, Szen N., Paxomov Yu. va boshqalar)ning psixologik mashqlari va usullaridan Harbiy ta’lim fakulteti talabalari faoliyatiga moslashtirilgan holda foydalanilishi mumkin. O’tkazilgan mashg‘ulotlar maqsadiga ko‘ra bir necha tiplarga bo‘linadi:

1. **Umumfaollashtiruvchi, tayyorlovchi mashg‘ulotlar**. Ular tegishli guruhiy hamkorlik muhitini yaratish: emotsional va xatti-harakatlardagi erkinlik, me’yoriy to‘siqlarni olib tashlash. Odatda, bu mashg‘ulotlar butun guruh bilan birgalikda bajariladi. Mazkur mashg‘ulotlarga quyidagilar kiradi: «tanishuv», «qor ustida yurish» «harakatni yoki tuyg‘uni doira bo‘ylab o‘tkazish», «Broun harakati» va boshqalar.

2. Psixometrik mashg‘ulotlar. Keyingi hamkorlik uchun o‘ziga «o‘xshashlik» yoki «farqlar» bo‘yicha sherik tanlash vazifasi: turli usullardagi «xotirjamlik» va «zo‘riqish» holatlari; «guruhiy portret» va «haykaltaroshlik» asarlarini yaratish mashg‘ulotlari.

3. Turli xatti-harakatlarni amaliy bajarishni mashq qilishga mo‘ljallangan mashg‘ulotlar. Ikki yoki uch kishi bo‘lib bajariladi. Ularga sheriklarni tushunishga

yo‘naltirilgan, o‘zaro hamkorlik strategiyasini o‘zgartirishga qaratilgan, o‘zaro aloqani o‘rnatishga his etishga yo‘naltirilgan verbal va noverbal mashqlar kiradi. «Yetakchilik» holatidan «bo‘ysunish» holatiga o‘tish, «bir-biridan nusxa ko‘chirish», «psixoterapevtik aloqa», «istaklarni topish» va boshqalar.

Taklif etilgan mashqlarning noodatiyligi tufayli tinglovchilarning mashg‘ulot chog‘ida o‘zlariga xos bo‘lmagan xatti-harakatlarni bajarishlariga to‘g‘ri keladi va bu muomaladagi siqiqlikni bartaraf etishga yordam beradi. Jismoniy aloqaga alohida urg‘u berish zarur: «broun harakati» dagi oddiy jismoniy muloqot hamda o‘z jarayonida qatnashchilarning «shu yerda va shu paytdagi» his-tuyg‘ulari haqidagi suhbatlari asosida kechadigan, bir-birlarining o‘ziga xos holatlarini tushunishga qaratilgan «qalbdan suhbat» mashqi. Shuni ham ta’kidlash joizki, mashg‘ulotlarning samaradorligi birgalikdagi faoliyat uchun zarur muhitni ta’minlashga bog‘liqdir.

Shunday qilib, biz yuqoridagi paragrafda bojxona xodimlari faoliyatida kasbiy shaxslilik sifatlarini tadqiq qilishga xizmat qiladigan psixologik metodikalarni va shaxslilik sifatlarini takomillashtirishga mo‘ljallangan IPT hamda uni o‘tkazishning psixologik shart – sharoitlarini yoritdik. Endi bevosita ekspremental tadqiqot natijalarini tahlil qilishga o‘tamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2024.- 36 b.
2. Abdusamedov N.A. Iqtisodiy xavfsizlik (ijtimoiy falsafiy tahlil). – Toshkent: Star-poligraf, 2008.- 166 b.
3. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. – Toshkent: Yozuvchi, 2002.- B.62.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.- 224 b.
5. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy «Al Jomi’ as– sahih». – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. 4-jild.- 526 b.
6. Alisher Navoiy. Mahbub – ul – qulub. – Toshkent, 1983.- 138 b.

7. Alimbayev S.A., Nosirov K.J. Rahbarlik faoliyatining pedagogik-psixologik asoslari. – Toshkent: OHBI, 2005.- 48 b.

8. Amir Temur va Temuriylar madaniyati va san’ati. – Toshkent: F. Fulom, 1996.- 88 b.

9. Usmanova X.E. Til yo‘nalishidagi mutaxassislar tayyorlashni ta’minlovchi psixologik omillar: Avtoref. dis. … psixologiya fanlari nomzodi. – Toshkent, 2005.- 23 b.

10. Karimova V.M. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq me’rosi nashriyoti «O‘AJBNT» markazi, 2002.- 205 b.

11. Burxoniddin Marg‘inoniy «Hidoya». – Toshkent: Adolat, 2001. I-jild.- 848 b.